



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

Respublika markaziy ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasining 2024-yil I yarim yillik ish rejasi



Madaniyat vazirligi tomonidan Respublikamizda faoliyat yuritayotgan 144 ta ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalarining 2024-yildagi 6 oylik ishrejalari markazlashtirilgan holda tasdiqlandi.

Mazkur amaliyotni joriy etilishi ko'zi ojizlar kutubxonalari faoliyatini yanadatakomillashtirish, doimiy nazoratgaolish, amaliy yordamko'rsatish hamda kitob mutoaalasi va kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilishga qaratilgan.

Yarim yillik ish rejalarda quyidagilar belgilangan:

1

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 25-dekabrda "2024-2026-yillarda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi **PQ-404-son** qarori ijrosini ta'minlash maqsadida **Jizzax viloyati Jizzax shahridagi viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasiga** yangi binoning qurilishi

2

Vazirlar Mahakamasining 2018-yil 18-sentabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatish tizimini takomillashtirish" to'g'risidagi **739-son qaror** ijrosini ta'minlash maqsadida **2024-yilda Respublika markaziy ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi** binosini rekonstruksiya qilish. **Navoiy, Buxorova Namangan viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalari**da reja bo'yicha yangi bino qurilish ishlarini amalga oshirish

3

Xorijiy axborot-kutubxona muassasalari ishini o'rganib malaka va tajriba almashish, kutubxonachilik sohasidagi yangiliklar va yangi loyihalar bilan tanishish maqsadida chet-el ko'zi ojizlar kutubxonalariga har chorakda **xizmat safarlari uyushtirish**. Yil davomida tarmoq kutubxonalariga bevosita uslubiy va amaliy yordam ko'rsatish maqsadida xizmat safarlari uyushtirish

4

2024-yilda barcha ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalarining istiqboldagi vazifalari hamda mavjud muammolarni bartaraf etish borasidagi masalalarni direktorlar kengashi va ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalari mutaxassislari uchun **seminar, konferensiyalar** tashkil etish

5

Respublikamizda ko'zi ojiz va zaif ko'ruvchi fuqarolar hamda ularning oila a'zolariga hamda kutubxona joylashgan hudud aholisiga xizmat ko'rsatuvchi jami **144 ta ko'zi ojizlar maxsus kutubxonalari**ning 2024-yil ish rejalarini qabul qilish va muvofiqlashtirish

6

Alisher Navoiy tavalludining 583 yilligi munosabati bilan **"Nazm va navo"**, Zahiriddin Muhammad Bobur tavalludining 541 yilligi munosabati bilan **"Vatan sog'inchi"** nomli madaniy-ma'rifiy tadbir tashkil etish

7

Respublika markaziy ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi kitob fondidagi adabiyotlarni **"IRBIS-64"** dasturiga kiritib,elektron katalog bazasini shakllantirish

8

Bo'rtma nuqtali kitoblarni chop etish tipografiyasi tomonidan **14 nomda bo'rtma nuqtali** kitoblar, Ovoz yozish studiyasi tomonidan **30 nomda audio** kitoblar chop etish

9

Ko'zi ojiz kitobxonlar orasida **"Brayl yozuvida tez va ifodali o'quvchi kitobxon"**, **"Eng yaxshi kitobxon"** respublika tanlovlarini o'tkazish. Ko'zi ojizlar kutubxonalari mutaxassislari o'rtasida "Yilningeng yaxshi kutubxonachisi" ko'rik tanlovini o'tkazish

10

Respublika ko'zi ojizlar kutubxonalarida amalga oshirilayotgan ishlar, o'tkizilayotgan tadbirlar, yangiliklar RMKOKning RMKOK Toshkent – **Facebook va Instagram, Telegram** ijtimoiy tarmoqlarida va OAVlarida muntazam yoritib borish.